
Transport 1..2017

Yuk tashish. 2017 yil yanvar-martda barcha transport turlari tomonidan 30,7 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 foizga ko'p. Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 709,2 mln.tn-km. ni tashkil qildi va 16,4 foizga ko'paygan.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

	2017 yil yanvar-mart	2016 yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn shu jumladan:	30,7	102,2
avtomobil transportida	29,2	103,5
Yuk aylanmasi, mln. tn-km shu jumladan:	709,2	116,4
avtomobil transportida	485,8	98,6

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2016 yil yanvar-martga nisbatan 107,3 foizga oshdi va 406,0 mln. tn-km. ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi

57,2 foizni tashkil etdi (2016 yil yanvar-martda 62,0 foiz).

Yo'lovchi tashish. 2017 yil yanvar-martda barcha transport turlari tomonidan 146,8 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,3 foizga ko'paygan. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 7,9 foizga ko'payib 1984,8 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi quyidagicha ifodalanadi:

	2017 yil yanvar-mart	2016 yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	148,6	106,3
shu jumladan, avtomobil transportida	148,2	106,2
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	1984,8	107,9
shu jumladan, avtomobil transportida	1928,6	105,7

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2016 yil yanvar-martga nisbatan 106,9 foizga oshdi va 1653,5 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 83,3 foizni tashkil etdi (2016 yil yanvar-martda 84,0 foiz).

2017-06-18 16:34:24